

FAN FALSAFASI MUSTAQIL YO'NALISH SIFATIDA

Isaqova Zamiraxon Ruhitdinovna

Namangan Davlat universiteti falsafa fanlari doktori (DSc), professor

ms.zamiraxonisaqova@gmail.com

Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o'g'li

Namangan Davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Falsafa yo'nalishi M.FAL-AU-25 guruh

talabasi qosimovxamidullo852@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda fan inson tafakkuri va taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Fan nafaqat amaliy natijalar beruvchi faoliyat, balki murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa hamdir. Aynan shu jihatlarni chuqur tahlil qilish zarurati fan falsafasining mustaqil yo'nalish sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan. Fan falsafasi fan nima, u qanday rivojlanadi, ilmiy bilimning mohiyati va chegaralari nimalardan iborat, degan savollarga javob izlaydi. Fan falsafasi falsafaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u fan taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari, ilmiy bilish jarayonining mohiyati, shakllari va metodlarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Fan tarixi, fan mohiyat, yo'nalish, tafakkur, ilmiy bilim, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy ahamiyat, mushohada, yondashuv.

Аннотация: В современном обществе наука является важным фактором в человеческом мышлении и развитии. Наука – это не только деятельность, приносящая практические результаты, но и сложный социокультурный феномен. Именно потребность в глубоком анализе этих аспектов привела к формированию философии науки как самостоятельного направления. Философия науки ищет ответы на вопросы: что такое наука, как она развивается, каковы сущность и границы научного знания? Философия науки – одно из важных направлений философии, изучающее общие законы развития науки, сущность, формы и методы процесса научного знания.

Ключевые слова: история науки, сущность науки, направление, мышление, научное знание, законы развития, социальное значение, наблюдение, подход.

Abstract: In modern society, science is an important factor in human thought and development. Science is not only an activity that produces practical results, but also a complex socio-cultural phenomenon. It is the need for a deep analysis of these aspects that led to the formation of the philosophy of science as an independent direction. The philosophy of science seeks answers to the questions: what is science, how does it develop, what are the essence and boundaries of scientific knowledge? Philosophy of science is one of the important directions of philosophy, it studies the general laws of the development of science, the essence, forms and methods of the process of scientific knowledge.

Keywords: History of science, essence of science, direction, thinking, scientific knowledge, laws of development, social significance, observation, approach.

Fan insoniyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri bo'lib, u tabiat, jamiyat va tafakkur qonuniyatlarini o'rganadi. Biroq fan faqatgina bilimlar majmui emas, balki murakkab ijtimoiy, madaniy va tarixiy hodisadir.

Shu sababli fan mohiyatini, uning rivojlanish mexanizmlarini va jamiyatdagi o'rnini falsafiy jihatdan tahlil qilish zarurati paydo bo'lgan.

Ana shu ehtiyoj asosida fan falsafasi mustaqil yo'nalish sifatida shakllangan. Fan falsafasi dastlab umumiy falsafa doirasida rivojlangan. Qadimgi va o'rta asr faylasuflari fan, bilim va haqiqat masalalarini falsafaning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqqanlar. XIX–XX asrlarga kelib fan jadal sur'atlarda rivojlandi, yangi ilmiy nazariyalar va metodlar paydo bo'ldi. Natijada ilmiy bilimni alohida falsafiy tahlil qilish zarurati kuchaydi va fan falsafasi mustaqil yo'nalish sifatida shakllandi.

“Pozitivizm namoyondasi G.Spenser (1820—1903) Fanning paydo bo'lishi nomli asarida fan tarixining vujudga kelishini o'ziga xos baholaydi. U kundalik va ilmiy bilim o'zaro mutanosibdir, deb e'tirof qilar ekan, fan jam'iyat bilan bir vaqtda paydo bo'lgan, degan fikrni inkor qiladi.

U ilmiy metodni, turli davrlarda o'zgarmaydigan dunyoni tabiiy anglash vositasi sifatida tushunadi, bilimning rivoji faqat bizning tajribalarimizning kengayishi bilan bog'liq, deb hisoblaydi. Spenser tafakkurga falsafiy mushohada xosligini inkor qiladi, uning aynan ana shu g'oyasi esa fan tarixchilari tom onidan tanqid qilinadi. Fan tarixini o'rganish XX asrda boshlangan bo'lsada, unga azaldan falsafaning yoki umumiy madaniyat nazariyasining bir bo'limi sifatida qaralgan.

Uni alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganish 1892-yilda Fransiyada fan tarixi kafedrasi ochilishi bilan boshlangan, deb hisoblanadi”⁴. Fan falsafasi ildizlari qadimgi falsafaga borib taqaladi.

Qadimgi Yunon faylasuflari — Aristotel, Platon va boshqalar bilim, bilish va haqiqat muammolarini o'rganib, fan asoslariga falsafiy yondashuvni shakllantirganlar.

O'rta asrlarda fan diniy qarashlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan bo'lsa-da, bilimning mohiyati falsafiy jihatdan tahlil qilingan. “Ilmiy bilimlarni tushunish har qanday aqlli insonga xos bo'lganligi uchun mazm unan aynanligini saqlagan holda xulosalar keng kolamda tarqaladi.

Yakdillik - umum ahamiyatlilik belgisi «qayerda uzoq vaqt mobaynida fikrlovchi faoliyatida yakdillikka erishilmasa o'sha yerda ilmiy bilimning umumiy ahamiyatligiga shubha paydo bo'ladi”⁵. Fan falsafasida bir qator muhim muammolar mavjud. Jumladan, ilmiy bilimning ishonchliligi, obyektivligi va chegaralari masalasi muhim o'rin tutadi. Shuningdek, ilmiy taraqqiyotning uzluksizligi yoki inqilobiyliigi, eski nazariyalar o'rnini yangi nazariyalar egallashi jarayoni ham fan falsafasining diqqat markazidadir. Bu borada ko'plab faylasuflar ilmiy taraqqiyotning turli modellarini taklif etganlar.

⁴ N.SHERMUHAMEDOVA “FALSAFA VA FAN METODOLOGIYASI” O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan Toshkent—2008 (5-bet)

⁵ К.Ясперс. Смысль и назначение истории. —М.:1993. -С 33

“Falsafa inson faoliyatining barcha boshqa sohalarining asosiy metodologiyasi bo'lsa-da, lekin o'z sohasini metodologik ishlanmalar, ya'ni falsafiy ta'lim metodologiyasi bilan ta'minlay olmagan. Bu yaqin o'tmishdagi falsafa kurslarining mazmunida yaqqol namoyon bo'ladi. Dialektik materializmni o'qitishning suiiste'mol qilinishi nafaqat mafkuraviy sabablarga ko'ra, balki falsafani fan sifatida mutloqlashtirilishi bilan ham bog'liq.

Bunday falsafa taraqqiyoliga fan sifatida eski va mukammal bo'lmagan bilimlarning yangi, yanada mukammalroq bilimlar bilan almashinishi, eski bilimning yangicha tarkibiy qism, element sifatida namoyon bolishi kabi qarashlar shakllanadi”⁶ Fan falsafasi bugungi kunda o'zining aniq predmeti, tushunchalar tizimi va tadqiqot usullariga ega bo'lgan mustaqil falsafiy yo'nalishdir.

U gnoseologiya, ontologiya va metodologiya bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, ilmiy bilimni maxsus falsafiy yondashuv asosida o'rganishi bilan ajralib turadi. Fan falsafasi ilmiy bilimni tanqidiy tahlil qiladi va uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga intiladi.

Fan falsafasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. U olimlarga ilmiy faoliyatning maqsadi va mas'uliyatini anglashga yordam beradi. Shuningdek, fan va texnologiyaning jamiyat hayotiga ta'sirini baholash, ilmiy yutuqlardan oqilona foydalanish masalalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Fan falsafasi orqali ilm-fan taraqqiyoti inson manfaatlariga xizmat qilishi ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, fan falsafasi zamonaviy falsafaning muhim va mustaqil yo'nalishi hisoblanadi.

U ilmiy bilimning mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari va ijtimoiy ahamiyatini chuqur falsafiy tahlil qiladi.

Fan falsafasi fan taraqqiyotini ongli ravishda tushunish, baholash va yo'naltirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J 1.- T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.- T.: O'zbekiston, 2018.
3. Narvaez D. va Lapsli D.K., (2005). Axloqiy o'ziga xoslikni rivojlantirish: rolni qayta ko'rib chiqish
4. Matbua Ahmedova “FALSAFA” O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyot TOSHKENT - 2006
5. M.Hamdova “Milliy g'oya asosida uzluksiz ta'lim-tarbiyani rivojlantirish mexanizmlari” (Metodik qo'llanma) Toshkent 2009-yil

⁶ N.SHERMUHAMEDOVA “FALSAFA VA FAN METODOLOGIYASI” O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan Toshkent—2008 (40-41-betlar)



6. Muhammadjon Imomnazarov “Milliy ma’naviyat bosqichlari” Toshkent 2010
7. Yo’ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o’rta asr G’arbiy Yevropa falsafasi. O’quv qo’llanma. – Toshkent: Sharq,
8. S.Valieva, K.Tulenova, I.Karimov “Ijtimoiy falsafa” Toshkent 2014-yil
9. www.ziynet.uz